


Buxoro viloyatida kichik tadbirkorlik


2018 yilning yanvar-iyunida 1550 ta yangi kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan 20,2 ko'p demakdir.

Eng ko'p kichik korxonalar va mikrofirmalar sanoat tarmog'ida (17,9%), o'rmon va baliq xo'jaligida (17,5%), savdo sohasida (17,0%), qurilishda tarmog'ida (15,3%), qishloq, yashash va ovqatlanishda (9,0%), tashish va saqlashda (3,6%) tashkil etilgan.

**2018 yil yanvar-iyun oylarida yangi tashkil etilgan
kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy
faoliyat turlari bo'yicha ulushi**




2018 yilning yanvar-iyunida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik sub'yektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda).



2018 yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik sub'yektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda) hududlar bo'yicha eng ko'p ko'rsatkich Buxoro shahrida 16,9 birlikda, Qoravulbozor tumanida 13,1 birlikda, Kogon tumani 9,7 birlikda, Romitan tumani 7,7 birlikda, Kogon shahrida 7,5 birlikda va Peshko' tumanida 7,2 birlikda bo'lib, o'rtacha ko'rsatkich 4-6,2 birlik oralig'ida Buxoro, Jondor, G'ijduvon, Vobkent, Shofirkon, Olot va Qorako'l tumanlarida aniqlandi.


**Kichik tadbirkorlik sub'yektlarining soni
(har 1000 aholiga, birlikda), yanvar-iyun holatiga.**



2016 yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik sub'yektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda) 6,5 birlikda bo'lib, 2017 yilda 6,8 birlikni tashkil etdi. 2018 yilda bu ko'rsatkich 7,3 birlikka yetdi. Bu esa, 2016 yil ko'rsatkichidan 1,1 birlik yuqori.

2018 yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlikning YaIMdagi ulushi 48,3 % ni tashkil qildi (2017 yilning yanvar-iyunida 70,0%). YaIM tarkibida pasayishi yirik korxonalar ulushi oshishi bilan tushuntiriladi.

**Kichik tadbirkorlikning YaIMdagi ulushining pasayishi
dinamikasi yanvar-iyun holatiga, %**



**2018 yil yanvar-iyunida kichik tadbirkorlikning
hududlar bo`yicha ulushi
(% da)**

	<i>Sanoat</i>	<i>Qurilish</i>	<i>Xizmatlar</i>
Buxoro viloyati	40,5	82,1	74,2
Buxoro shahar	62,5	86,5	65,3
Kogon shahar	26,5	86,3	85,2
Tumanlar			
Olot	49,0	67,0	95,3
Buxoro	89,1	98,3	98,7
Vobkent	100	100	94,9
G'ijduvon	72,3	100	94,5
Kogon	95,9	90,5	91,1
Qorako'l	68,0	93,4	97,1
Qoravulbozor	10,8	16,8	29,2
Peshko'	23,7	100	94,4
Romitan	25,4	88,9	95,3
Jondor	50,0	100	92,9
Shofirkon	81,3	97,8	93,2

Hududlar bo`yicha sanoat sohasining yuqori ulushini Vobkent (100,0 %), Kogon (95,9 %) va Buxoro (89,1 %) tumanlari tashkil etadi.

Qurilishda Vobkent (100,0 %), G'ijduvon (100,0 %), Peshko' (100,0 %) va Jondor (100,0 %) tumanlari tashkil etadi.

Xizmatlar sohasida Buxoro (98,7 %) va Qorako'l (97,1 %) tumanlari tashkil etadi.

2018 yilning yanvar–iyunida kichik tadbirkorlik sub`ektlari tomonidan:

– sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi 1443,3 mlrd. so`mni (jami sanoat ishlab chiqarishining 40,5 %) yoki 2017 yilning yanvar– iyuniga nisbatan o`shish sur`ati 104,3 %ni tashkil qildi;

– 988,0 mlrd. so`mlik investitsiyalar (umumiy investitsiyalar hajmining 21,8 %i) o`zlashtirildi va 2017 yilning yanvar–iyuniga nisbatan o`shish sur`ati 142,4 %ni tashkil qildi;

– 1296,5 mlrd. so`mlik qurilish ishlari (qurilish ishlari umumiy hajmining 82,1 %) bajarildi va 2017 yilning yanvar– iyuniga nisbatan o`shish sur`ati 123,3 % ni tashkil qildi;

– 1211,7 mlrd.so`mlik xizmatlar ko`rsatilib (respublika jami xizmatlar xajmining 65,3 %), 2017 yilning yanvar– iyuniga nisbatan o`shish sur`ati 101,8 % ni tashkil qildi;


– chakana tovar aylanmasi umumiy hajmining 89,3 % yoki 3462,8 mlrd. so`mi (o`shish sur`ati 0,3 % ni tashkil qildi) shakllantirildi;

– 36,7 mln. AQSh dollari (umumiy eksport hajmining 38,6 %) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) eksport qilindi, bu esa 2017 yilga nisbatan 16,7 mln. AQSh dollariga yoki 68,6 % ga kam;


– avtomobil transporti yuk aylanmasining 5,6 %ga (respublika jami avtomobil transporti yuk aylanmasining 82,4 %) ko`payishi ta`minlandi;

– yo`lovchi aylanmasining esa 2,5 % ga (umumiy yo`lovchi aylanmasining 96,8 %) ko`payishi ta`minlandi;

Kichik tadbirkorlikning ulushi (umumiy hajmiga nisbatan % da)




2018 yil yanvar-iyunida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi va sur'ati



Hududlar bo'yicha eng ko'proq sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Buxoro shahri (385,7 mlrd.so'm), G'ijduvon (170,5 mlrd.so'm) va Vobkent (130,3 mlrd.so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Qorovulbozor (12,6 mlrd.so'm) va Kogon (16,8 mlrd.so'm) tumanlarida ushbu sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi past bo'lib qolmoqda.




2018 yil yanvar-iyunida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da chakana tovar aylanmasi hajmi va sur'ati



Hududlar bo'yicha ko'proq chakana tovar aylanmasi hajmi Buxoro shahri (1021,0 mlrd.so'm), G'ijduvon (590,4 mlrd.so'm), Qorako'l (365,3 mlrd.so'm), Romitan (244,9 mlrd.so'm) va Jondor (215,5 mlrd.so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.



2018 yil yanvar-iyunida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da xizmatlar sohasi hajmi va sur'ati




Hududlar bo'yicha ko'proq xizmatlar hajmi Buxoro shahri (1211,7 mlrd.so'm), G'ijduvon (238,1 mlrd.so'm) va Buxoro (89,4 mlrd.so'm), Romitan (83,1 mlrd.so'm) va Vobkent (79,7 mlrd.so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2018 yil II - chorak yakunlariga ko'ra, yangi tashkil etilgan mikrofirm va kichik korxonalarda tanlanma kuzatuvlar o'tkazildi. Unda 44 dan ortiq respondentlar ishtirok etdi.

Kuzatuv ma'lumotlari tahlili, qurilish sohasida respondentlarning 50,0 % iqtisodiy vaziyatni – qulay va 33,3 % esa qoniqarli deb hisoblashini, mos ravishda savdo sohasida – 62,2 % va 32,5 %, xizmatlar sohasida – 53,4 % va 33,3 %, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida – 37,5 % va 37,5 %, sanoatda – 71,4 % va 0 %ni tashkil qilganini ko'rsatdi.


Joriy iqtisodiy vaziyatga pessimistik ruhda yondashganlar sanoatda – 28,6 %, qurilishda – 16,7 %, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida – 25,0 %, xizmatlarda – 13,3 % ni tashkil qildi.

Iqtisodiy vaziyatni baholash 2018 yil II–chorak uchun, %



Iqtisodiy vaziyat yaxshilanishi yaqin uch oyda 100,0 % sanoat korxonalari, 100,0 % – savdo, 93,3 % – xizmatlar, 87,5 % – qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligi va 83,3 % – qurilish tarmog`ida kutilmoqda.

Iqtisodiy vaziyatdagi o`zgarishlar istiqbolini yaqin uch oyda baholanishi, %



Tahlil natijalaridan kelib chiqib, yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarga biznes muhitini yaxshilash uchun ko`rilayotgan chora tadbirlar natijasida respondentlar yaqin istiqbolda umumiy iqtisodiy vaziyatning yaxshilanishini ijobiy baholayotganligini xulosa qilish mumkin.